Boshlang'ich sinflar o'quvchilariga masal va maqol janrlarining o'rganilishi ........ 563
Xudoyberdiyeva Nodira O'ktamovna, Ibotova Vasila Laziz qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Методология преподавания русского языка как иностранного: интеграция прагмалингвистических аспектов и культурных контекстов в обучении узбекских студентов ........ 566
Лола Назарова

Учет психологических и педагогических характеристик будущего учителя в процессе индивидуального тестирования ........ 570
Эшбоева Зарина Бобомурод кизи

Modulli ta'lim texnologiyasi va uni boshlang'ich ta'limda qo'llash ........ 574
Adizova Nigora Baxtiyorovna, Norqulova Dilorom

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls topshiriqlariga tayyorlashda o'qish savodxonligi darslarining o'rni va ahamiyati ........ 578
Adizova Nodira Baxtiyorovna, Nabiyeva Nigora Normuhammad qizi

Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tasavvurlarini shakllantirish mazmuni ........ 582
Adizova Nodira Baxtiyorovna, Baxronova Shaxnoza Rustamovna

Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari ........ 586
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Elova Marjona Shomurod qizi

Boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan o'quv lug'atlarining o'ziga xos xususiyatlari ........ 592
Ergasheva Tuyg'unoy Shavkatjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy materiallarni tayyorlash tamoyillari ........ 594
Hakimova Mehriniso Homitovna, Ergasheva Feruzabonu Baxriddin qizi

21-asr ko'nikmalarining ta'lim tizimida rivojlantirishdagi produktiv yechimlar va ilg'or tendensiyalar ........ 598
Idiyeva Gulchehra Izomovna

Inkorporatsion yondashuvlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisidagi kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 603
Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna

Birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish ........ 607
Jumayev Ro'ziqul Xoliqulovich, Jo'rayeva Nazokat Farhodovna

Boshlang'ich sinf darslarida lug'atdan foydalanish amaliyoti: noan'anaviy usullar, innovatsion texnologiyalar ........ 611
Karimova Feruza Mo'minovna, Homidova Zarina Rustam qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yo'l qo'yadigan nutqiy xatolar ustida ishlash jarayonida metod va topshiriqlardan foydalanishning metodik asoslari ........ 616
Karimova Kamola Komil qizi

O'quvchilarni tejamkorlikka o'rgatish bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar ........ 622
Kasimov Fayzullo Muxammadovich, Subxanova Ozoda

Boshlang'ich sinf o'quvchisini kreativ fikrlashga o'rgatishda tipik arifmetik masalalarning roli ........ 627
M. M. Qosimova, S. E. Ikromova

Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'qitishda integratsion metodlar ........ 631
Adizova Nodira Baxtiyorovna, Nematova Malika Hikmatovna

Sun'iy intellekt asosida ta'lim sohasini takomillashtirish ........ 634
Raximova Nargiza Mexriddinovna

O'zbek xalq o'yinlari bolalarni mehnatsevarlikka tayyorlaydi ........ 638
Safarova Nigora Oxunjonovna, O'ktamova Sabina Azizjon qizi

Boshlang'ich sinflarda tenglamalar yechish mavzusida 5E modelidan foydalanish ........ 641
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Mansurova Umida Mansur qizi

Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida integrativ yondashuv ........ 646
Saidova Gavhar Ergashovna

Ijodiy topshiriqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy qobiliyatni rivojlantirish omili sifatida ........ 649
Shoyeva Yulduz Amin qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda iboralar ustida ishlashning didaktik mezonlari ........ 652
To'rayeva Sanobar Sulaymonovna

Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda texnik ijodkorlikni shakllantirish ........ 657
Tursunova Nozima Ilxomovna

Individual yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish mexanizmlari ........ 661
**Xaydarova Malika Djamshitovna**

O'qish savodxonligi darslarida etnopedagogik qadriyatlarning o'rni va ahamiyati ........ 665
**Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi**

Изобразительное искусство Узбекистана на занятиях русского языка как эффективный средство развития речи и формирование эстетической культуры студентов........ 669
**Дустова Дилдора Собиржановна**

Моделирование уроков с применением стратегий развития критического мышления ........ 674
**Рузиева Майрам Амрилоевна**

Тема "Развитие духовно-творческого потенциала ребенка как фактор самореализации в социуме" 678
**Хасанова Гулшод Касимовна**

Amaliy mashg'ulot jarayonida talabalarning boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish........ 682
**Narimbaeva Lola Kuzibayevna**

Developing Feedback Literacy Through Technology-Mediated Feedback in L2 Writing: A Mixed-Methods Approach........ 686
**Sabokhat Rakhimova Mirzokhid kizi**

# AMALIY MASHG'ULOT JARAYONIDA TALABALARNING BOSHQARUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Narimbaeva Lola Kuzibayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada mutaxassislar tayyorlash tarkibi va mazmunini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar berilgan. Ta'lim jarayonida aniq vaziyatlarni tahlil qilish, talabalarda kasbiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, ta'lim sifati, ijodiy faol, boshqaruv, mutaxassislik, rahbarlik, mahorat, muammoli vaziyat, boshqaruv madaniyati, sharoitlarga moslashish, kasbiy rivojlanish.

**Abstract:** The article presents scientific recommendations for improving the structure and content of specialist training based on the competency-based approach. It outlines methods for analyzing specific situations in the educational process and developing students' skills in solving professional problems.

**Key words:** competency, quality of education, creative activity, management, specialty, leadership, mastery, problem situation, management culture, adaptability, professional development.

**Аннотация:** В статье представлены научные рекомендации по совершенствованию структуры и содержания подготовки специалистов на основе компетентностного подхода. Приведены методы анализа конкретных ситуаций в учебном процессе и формирования у студентов навыков решения профессиональных проблем.

**Ключевые слова:** компетенция, качество образования, творческая активность, управление, специальность, руководство, мастерство, проблемная ситуация, культура управления, адаптация к условиям, профессиональное развитие.

## KIRISH

So'nggi yillarda yangi ta'lim paradigmasi paydo bo'ldi. Uning doirasida zamonaviy ta'lim sifati oliy ta'lim bitiruvchilari kompetensiyalarining qanchalik rivojlanganligi – bilim va vaziyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va bilimlarni hal qilinayotgan muammolarga adekvat qo'llash qobiliyati bilan belgilanadi. Raqobatbardosh shaxs mustaqillik, tashkilotchilik, ijodiy muammolarni hal qilish, o'z faoliyatini rejalashtirish, tashkilotga moslashish va o'zgarishlarga tayyor bo'lish kabi ko'plab rivojlangan fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Ammo ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etishning muhim shakl va usullaridan biri – kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridir.

Kompetensiya – talabalar tayyorgarligining muhim xususiyati va oliy ta'limda mutaxassislar tayyorlashning asosiy talablaridan biridir. Kompetensiya – biror soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati. Kompetensiya – bu nafaqat fanni chuqur bilish, topshiriqni yetarli darajada bajarish holati, haqiqiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, balki bilimlarni doimiy ravishda yangilashni, muayyan sharoitlarda muvaffaqiyatli qo'llash uchun yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishni, potentsialni o'z ichiga oladi. Iqtisodiyot davriy texnologik va tashkiliy yangilanish, ishlab chiqarish usullari va boshqaruv tamoyillarini muntazam takomillashtirish rejimida yashayotgan bir davrda hodim oldiga mutlaqo yangi talablar qo'yilmoqda. Ish beruvchilar ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirgan va o'z bilimlarini amalda qo'llashga qodir, ijodiy faol odamlarga ustunlik beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xususiyatlari tez o'zgarib borayotgan va texnologik jihatdan murakkab bo'lgan ta'limning yuqori sifatini ta'minlash, o'z bilimlarini yaxshilash va kengaytirishga intilish, doimiy ravishda o'rganish qobiliyati qadrlanadi. Uchinchi Renessans avlodi davlat ta'lim standarti talabalar o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlarga alohida e'tibor

beradi. Shu sababli ijtimoiy faollik, atrofdagi jamiyatda erkin yo'naltirilganlik, axborot texnologiyalarini egallash, fuqarolarga nisbatan bag'rikenglik va hayot davomida ta'limni davom ettirish qobiliyati kabi shaxsiy ustuvorliklar birinchi o'ringa chiqadi.

Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni talabalarda voqealarni rivojlantirishning bir nechta variantlari orasidan ongli ravishda tanlash, amaliy va mavhum xarakterdagi muammoli vaziyatlarni hal qilish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Mutaxassislar tayyorlash tarkibi va mazmunini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida takomillashtirish keyingi yillarda ancha qizg'in ko'rib chiqilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida boshqaruv malakasini rivojlantirish jarayoniga to'sqinlik qiladigan bir qator kamchiliklarni qayd etish mumkin, xususan: mutaxassislar tayyorlashning an'anaviy bilim-ko'nikmasiga tayanish; talabalarda boshqaruv malakasini rivojlantirishga hissa qo'shadigan maxsus fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlarning yetarli emasligi; talabalar o'rtasida boshqaruv malakasining rivojlanish darajasini aniqlashning diagnostika usullarining ishlab chiqilmaganligi; ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'rtasida boshqaruv malakasining rivojlanish darajasini baholash imkonini beruvchi mezon va ko'rsatkichlar tizimining yo'qligi. Ushbu kamchiliklar oliy ta'lim muassasalari talabalarida boshqaruv kompetensiyasini shakllantirish uchun ushbu mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavjud muammoning nazariy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va uning katta amaliy ahamiyati bizni ushbu mavzuni ("Talabalarning amaliy mashg'ulotlar jarayonida boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish") yoritishga undadi. Maqsad: o'quv jarayonida talabalarda boshqaruv malakasini rivojlantirish orqali kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish.

Quyidagi hollarda mutaxassislarni tayyorlash sifati yaxshilanishi mumkin: boshqaruv kompetensiyasini bo'lajak mutaxassis kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri deb bilish, bu uning mohiyatini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi; talabalarda boshqaruv malakasini shakllantirish modelining nazariy va uslubiy asoslarini aniqlash; o'qitishning maqsadlari, mazmuni va texnologiyasini ishlab chiqishda "Umr bo'yi ta'lim" yangi ta'lim dasturini amalga oshirishga bo'lgan bo'lajak mutaxassislarning izlanayotgan asosiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beruvchi kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanish; boshqaruv malakasini rivojlantirish, kontekstli ta'lim modelidan foydalanish, unda menejment nazariyasi va modulli fanlararo komplekslarning so'nggi yutuqlari o'qitish mazmuni va texnologiyasiga kiritilgan, o'z-o'zini baholash usuli talabaning o'z-o'zini rivojlantirish potentsialini rivojlantirish mexanizmi sifatida qo'llash; boshqarish, o'z-o'zini rivojlantirish va refleksiv texnologiyalardan faol foydalanish; boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishning tizimli diagnostikasi B. Blum taksonomiyasi asosida kompetensiyalar orqali amalga oshiriladi. Amerikalik olim B. Blumning o'quv maqsadlari taksonomiyasi 6 darajaga ega: bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim jarayonida aniq vaziyatlarni tahlil qilish usulidan foydalanish talabalarda kasbiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Biroq, rahbar ishining samaradorligi professional muammolarni hal qilishdan ko'ra ko'proq hodimlarni boshqarish qobiliyatiga bog'liqligi uzoq vaqtdan beri ta'kidlangan. Faoliyatning ushbu jihatlari o'rtasidagi nisbat 2:1 ni tashkil qiladi. Rahbar tomonidan hal qilinadigan barcha masalalarning 40% gacha bo'lgan qismi jamoani boshqarish bilan bog'liq bo'lib, uning ishining samaradorligi o'rtacha to'rtdan uch qismi boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatiga bog'liq. Amerikalik mutaxassislar boshqaruv ko'nikmalarini tashkil etishning sakkizta asosiy fazilatini aniqlaydilar: rasmiy va norasmiy asosda hamkasblar hamda tengdoshlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati; qul ostidagilar bilan muloqotda yetakchilik fazilatlarini namoyon etish qobiliyati; muammoli vaziyatlarda to'g'ri echim topa olish qobiliyati; kerakli ma'lumotni to'plash va qayta ishlash, uni baholash, taqqoslash va o'zlashtirish qobiliyati; noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati; vaqtni boshqarish, qul ostidagilar o'rtasida ishni taqsimlash, ularga zarur vakolatlar berish va tezkor tashkiliy qarorlar qabul qilish qobiliyati; tadbirkorning ishbilarmonlik fazilatlarini namoyon etish qobiliyati: istiqboldagi maqsadlarni belgilash, qulay imkoniyatlardan foydalanish, tashkilotning tashkiliy tuzilmasini o'z vaqtida o'zgartirish; chiqarilgan qarorlarning oqibatlarini tanqidiy baholash va kamchiliklardan saboq olish qobiliyati.

O'quv jarayonida bu sifatlarni shakllantirish uchun aniq ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar tarkibiga kiruvchi boshqaruv tizimlarini modellashtirish zarur. Shuningdek, boshqaruv tizimining ikkita modeli asosida o'qitish usullariga tayaniladi: aloqa tizimi modeli va birgalikdagi faoliyat tizimi modeli. Bunday usullar rol o'ynash va taqlid qilish o'yinlaridir. Talabalarda boshqaruv madaniyatini shakllantirish jarayoni tizimli yondashuvni talab qiladi. Biz mutaxassislik fanlari orqali boshqaruv madaniyatini rivojlantirish tizimini joriy qilamiz. Mutaxassislik fanlari

o'qituvchilari bo'lajak kadrlarni tayyorlash maqsadida ishbilarmonlik o'yinlaridan foydalanadilar (masalan, "Mening mehnatga haq to'lash shakllarim va tizimlarim", "Agar men rahbar bo'lsam", "Mening Vatanim", "Birja" va boshqalar). Bundan tashqari, ushbu o'yin shaklidan talabaga mutaxassis uchun kerak bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish va ularni kasbiy faoliyatni taqlid qiladigan sharoitlarda namoyish etish imkoniyatini beradigan professional modul sifatida foydalanish mumkin. Bu talabaga kasbiy rivojlanish imkonini beradi, ya'ni: to'plangan nazariy bilimlar va amaliy tajribadan birgalikda foydalanish ko'nikmalari; kasbiy muammolarni tushunish va ularga yechim topa olish ko'nikmalari; muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida mavjud bilimlardan mustaqil ravishda foydalanish qobiliyati. Bundan tashqari, o'yin talabalarning aqliy faoliyatini faollashtiradi, ularning ijodiy salohiyatini kasbiy vaziyatlarni hal qilishga yo'naltiradi va ularning kelajakdagi kasbiga moslashishga yordam beradi, chunki talabalarga kasbiy kompetensiyalardan foydalanishni talab qiladigan umumiy vazifa beriladi.

Ishbilarmonlik o'yinlaridan foydalanish bizga ishtirokchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlash va kuzatish imkonini beradi. Shu sababli, kadrlarni tanlash jarayonida biznes o'yinlari ko'pincha qo'llaniladi. Ularning yordami bilan quyidagilarni aniqlash mumkin: muayyan lavozimga nomzodning faollik darajasi; taktik va strategik fikrlashning mavjudligi; yangi sharoitlarga moslashish tezligi; hamkasblarning motivlarini tahlil qilish va ularning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish qobiliyati; rahbarlik uslubi, qaror qabul qilishda "o'zi" yoki "jamoa manfaatini" ko'zlash va h.k. Ishbilarmonlik o'yinlari talabaga shaxsning jamoada o'zini qanday tutishi haqida aniqroq tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi, bu esa rahbar uchun juda muhimdir. Ta'limning ushbu shaklidan foydalanish tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ishbilarmon o'yini davomida talabalar kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda o'zaro faoliyat kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Ular turli aloqa vositalaridan foydalangan holda hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Modulli-kompetentlik yondashuvi tamoyillari asosida qurilgan o'yin mutaxassislarni tayyorlashda asosiy professional modulga aylangan.

Amaliy mashg'ulotlar, xususan ishlab chiqarish amaliyoti, oliy ta'lim talabalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Busiz haqiqiy ishlab chiqarish bilan tanishish, nazariy bilimlarni mustahkamlash, mehnat ko'nikmalarini egallash, maxsus fanlar bo'yicha kurs ishlarini ongli loyihalash mumkin emas. Oliy ta'lim talabalarini real ishlab chiqarish manfaatlari yo'lida individual maqsadli tayyorlash bosqichi sifatida ishlab chiqarish amaliyotining rolini kengaytirish kasbiy kompetensiyalarning manbai va ularni shakllantirish uchun rag'bat sifatida qaralishi mumkin. Biz ko'rib chiqayotgan tizim boshqaruv madaniyatiga ega bo'lgan mutaxassislar uchun ijtimoiy buyurtma bilan belgilanadi, shuning uchun biz taklif qilayotgan tizimning o'ziga xos maqsadi boshqaruv madaniyatini shakllantirishdan iborat. Vazifalarni ishlab chiqishda biz quyidagi talablarni hisobga olamiz: topshiriqlar majmui tasodifiy emas, balki tizimni ifodalashi kerak; topshiriqlar tizimini qurishda talabalarning yosh xususiyatlarini hamda ular ko'pincha duch keladigan kommunikativ vaziyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur; har bir vazifa avvalgisi bilan bog'liq bo'lishi va murakkablik jihatidan reproduktivdan ijodiygacha bo'lgan asosda qurilishi kerak; topshiriqlar tizimi nafaqat kommunikativ bilim va ko'nikmalarni egallashga yordam berishi, balki ularni yangi sharoitlarga tatbiq etishga ham xizmat qilishi, talabaning kommunikativ qobiliyatlari va axborot ehtiyojlarini faollashtirishi lozim; boshqaruv muammolarini hal qilish uchun faoliyatning universal shakllarini o'zlashtirish; ushbu faoliyatning maqsad va mezonlarini belgilovchi madaniy qadriyatlar tizimi bilan tanishish; shaxsiy rivojlanish muammolari mavzusi bo'yicha bilimlarni egallash. Shakllanish tizimining barcha elementlari turli fanlararo aloqalar orqali bir butunga birlashadi.

Menejment madaniyatini shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan tizim bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish omili sifatida qaralmoqda. Boshqaruv madaniyati darajasi sifatini quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlaymiz: sifat – kasbiy tayyorgarlik natijasida o'quv predmetining oliy ta'lim davlat standartiga muvofiqligi; bilimning sifat holati doimiy emas, u yangi xususiyatlarning aniqlanishi bilan o'zgaradi; talabalar bilimining sifati doimiy narsa emas, chunki uning asosiy ko'rsatkichlari o'quv jarayonini tashkil etish va talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq. Tizimning amaliy ahamiyati kelajakdagi mutaxassisdan talab qilinadigan asosiy talablar va zarur fazilatlar qanchalik to'liq aks ettirilganiga bog'liq.

Ta'lim jarayonida vazifaga asoslangan ta'limni rivojlantirish va joriy etish masalalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi: Ta'lim vazifalarining universal xususiyati, masalan, ularning o'quv jarayonida harakatlantiruvchi kuch bo'lishi va talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish usuli sifatida qo'llanishi, o'qitishning turli shakl va usullarida keng foydalanishga imkon beradi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarida kompetensiyalarni shakllantirishga hissa qo'shadi. Kompetensiyaga yo'naltirilgan vazifalar loyihalar, amaliy topshiriqlar, ishbilarmon o'yinlar va boshqalar shaklida bajarilishi mumkin. O'quv vazifalarining ierarxik tarzda tashkil etilgan ketma-ketligi o'quvchilarning o'quv faoliyati dasturini tashkil etishini hisobga olgan holda, o'quv jarayoniga kiritilgan kompetensiyaga yo'naltirilgan vazifalar tizimi, biz o'ylaganimizdek, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirishni ta'minlashga qodir.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, vazifaga asoslangan ta'lim – bu kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan tashkiliy shakllar va o'qitish usullaridan foydalanishni optimallashtirishning samarali vositasi bo'lib, shu bilan o'zlashtirish natijalarida Davlat ta'lim standartlari talablarining bajarilishini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abduqodirov A., Pardaev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 44 b.
2. Andreyev A. L. Kompetentnostnaya paradigma v obrazovanii. // Pedagogika, 2005. – №4. – S. 19–26.
3. Za'ipov K. Pedagogik tizimni boshqarish qonuniyatlari va rahbarlik. // Uzliksiz ta'lim jurnali. – T.: 2004. – 4-son. – B. 24.
4. Narimbayeva L. K. Talabalarda boshqaruvchanlik ko'nikmasini rivojlantirishning didaktik asoslari. // Научный импульс, №26 (100), 1-qism. – Oktabr 2024.
5. Narimbayeva L. K. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish. // Muallim ham uzluksiz bilimlendiriw, 2024. – 3/1-son. – B. 350–354.
6. Narimbayeva L. K. Talabalarda boshqaruvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari. Monografiya. – T.: ZEBO PRINTS, 2024. – 84 b.
7. Narimbayeva L. K. Maktabgacha ta'limni boshqarishning tuzilishi va mazmuni. // Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, 2024. – B. 87–90.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

// MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.